

ISSN k181-9505
Doi Journal 10.k6739/k181-9505

Philosophy and Life

FALSAFA VA HAYOT • ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ

2026 №2 (33)



ISSN k181-9505

Doi Journal 10.k6739/k181-9505

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi

Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi

O'zbekiston falsafa jamiyati

Национальный Университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Международный научно-исследовательский центр Имам Бухари

при Кабинете Министров Республики Узбекистан

Философское общество Узбекистана

The National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Imam Bukhari International Research Center under the Cabinet of Ministers
of the Republic of Uzbekistan

Philosophical Society of Uzbekistan

FALSAFA VA HAYOT

XALQARO JURNAL

ФИЛОСОФИЯ И ХИЗНЬ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ

PHILOSOPHY AND LIFE
INTERNATIONAL JOURNAL

2026 №2 (33)

Jurnal bir yilda 4 marta nashr qilinadi.

Журнал выходит 4 раза в год.

The journal is published 4 times in a year.



Toshkent

“Falsafa va hayot” xalqaro jurnal
“Философия и жизнь” международный журнал
“Philosophy and Life” international journal

Tahrir kengashi Abdildina, R.J. – Qozog‘iston FA akademigi, falsafa fanlari doktori, professor Mamedzade, I.R. – Azarbayjon FA Falsafa va sotsiologiya instituti direktori, falsafa fanlari doktori, professor Skarantino, L.M. – DSc, professor, (Italiya) Smirnov, A.V. – Rossiya FA akademigi, Rossiya falsafa jamiyati, falsafa fanlari doktori, professor (Rossiya) Seytaxmedova N.L. – Qozog‘iston FA akademigi, falsafa fanlari doktori, professor Tsuy Veyxan – Xitoy ijtimoiy fanlar Akademiyasi vitse-prezidenti, DSc, professor, (Xitoy) Chumakov, A.N. – Rossiya FA Falsafa instituti professori, falsafa fanlari doktori (Rossiya) Muassislar: Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy - tadqiqot markazi O‘zbekiston falsafa jamiyati Expert lawyers MCHJ Elc.uz Ro‘yxatga olinganligi haqidagi 1175 sonli guvohnoma O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 20.02.2018 yilda berilgan.	Bosh muharrir: Shermuhamedova, N.A. – f.f.d., professor (O‘zbekiston) Bosh muharrir o‘rinbosari: Aslanova, R. – f.f.d., professor (Azarbayjon) Mas’ul muharrir: Muhamedova, Z.M. – f.f.d., professor (O‘zbekiston) Tahrir hay’ati: Allahyarova, T., – f.f.d., professor (Azarbayjon) Andirjanova, G.A., – s.f.d., professor (Qozog‘iston) Abasov, A.S., –f.f.d., professor (Azarbayjon) Axamer, G – f.f.d., professor (Avstriya) Buzarinejad, Y. – f.f.d, professor (Eron) Bilalov, M.I., – f.f.d., professor (Rossiya) Gabitov, T.X., – f.f.d., professor (Qozog‘iston) Gezalov, A.A., – f.f.n., professor (Rossiya) Kerimov, E. – f.f.d., professor (Azarbayjon) Kurmangalieva, G. K., – f.f.d., professor (Qozog‘iston) Kurbonova, L.A. – f.f.d.DSc, dotsent (O‘zbekiston) Lazarevich, A.A. – f.f.d., professor (Belorus) Olatunji, Feliks – PhD, dotsent (Nigeriya) Paxruddinov, Sh.I. – s.f.d., professor (O‘zbekiston) Pardayev, S. – falsafa doktori (PhD), (O‘zbekiston) Sergeev, M.Y., – professor (AQSh) Sagikizi, A. – f.f.d., professor (Qozog‘iston) Tulenova, G. J – f.f.d., professor (O‘zbekiston) Tesdelen, Vefa, – f.f.d., professor (Turkiya) Tyukmaeva A.M. – falsafa doktori PhD (O‘zbekiston) Hakimov N. H. – f.f.d., professor (O‘zbekiston) Xudoydodzoda, F.B., – f.f.d., professor (Tojikiston) Xudoyberganov, R. – f.f.d.DSc, (O‘zbekiston) Mahmadizoda, N. – f.f.d., professor (Tojikiston) Naushabaeva, A. H – falsafa doktori (PhD), professor (Turkiya) Urmanbetova, J.K., – f.f.d., professor (Qirg‘iziston) Chjan Baychun, – f.f.d., professor (Xitoy) Sharipova E.K. – f.f.d., professor (Qirg‘iziston) Ilmiy kotib: Xidirov, M.T. – falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent (O‘zbekiston) Musahhihlar: Qodirov J. – (O‘zbekiston) Po‘latov A. – (O‘zbekiston)
--	--

MUNDARIJA

SIYOSAT VA JAMIYAT FALSAFASI

Inaqov Qudratjon Qadirjonovich	MEDIASAVODXONLIK VA MA'NAVİY REFLEKSIYANING YOSHLAR MAFKURAVIY IMMUNITETINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY BILISH MEXANIZMLARI SIFATIDAGI AHAMIYATI	9-20
Sapayev Valisher Odilbek o'g'li	RAQAMLI GEOSIYOSIY MAKONNING MAFKURAVIY MUNOSABATLAR TIZIMIDAGI O'RNI	21-35
Seytalieva Nurzada Tugolbekovna	MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARIDA MILLIY MAFKURA TRANSFORMATSIYASI VA UNING IJTIMOY ONGGA TA'SIRI	36-45
Usmonov Saidikromxo'ja Saidalieovich	KIBERZO'ROVONLIK VA KIBERBULLINGNING IJTIMOY VOQELIK SIFATIDAGI MOHIYATI	46-56

TA'LIM VA FAN FALSAFASI

Seytaxmedova Natalya Lvovna	DINIY TA'LIMNI RAQAMLASHTIRISH VA YOSHLARNING MA'NAVİY-AXLOQIY QADRIYATLARINI SHAKLLANTIRISH	57-65
Qurbonova Lola Abdixodimovna	JAMIYAT TARAQQIYOTIDA ELITAR TARBIYANING IJTIMOY-FALSAFIY ASOSLARI VA UNING INTELLEKTUAL ELITA SHAKLLANISHIDAGI ROLI	66-76
Xidirov Mustafu Toyirqulovich	ZAMONAVIY FAN TARAQQIYOTIDA BILIM VA FAOLIYATNING O'ZGARUVCHANLIGI VA DAVR RUHI BILAN INTEGRATSIYASI	77-86

FALSAFA TARIXI VA TARIX FALSAFASI

Oni Maykl Olatunji	SARTR GUMANIZMI AFRIKADA MADANIY IDEALLAR TRANSFORMATSIYASI UCHUN IMPERATIV SIFATIDA	87-98
Mayliyev Azamat Farxod o'g'li	STRATEGIK TAFAKKUR VA IJTIMOY MAS'ULIYATNING IJTIMOY-FALSAFIY ASOSLARI	99-109

DUNYO MADANIYATI VA DINIY AN'ANALAR

Ademola, Julius Olajide	GERASALIK JIN CHALINGAN KISHINING SHIFO TOPISHI GERMENEVTIKASI: CHRIST APOSTOLIC CHURCH, IBADAN, NIGERIYA MISOLIDA	110-122
Akinnavo Yetunde Abolaji, Deji Isaac Ayegboyin	NIGERIYADAGI AFRIKA PENTEKOSTALIZMIDA IDENTIFIKATSIYANING MA'NAVİY GRAMMATIKASI	123-136
Ganjiyev Shuxratjon Jurayevich	HARBIY XIZMATCHILAR MA'NAVİY DUNYOQARASHIDA MILLIY QADRIYATLAR VA GLOBAL OMMAVIY MADANIYAT TA'SIRINING IJTIMOY-FALSAFIY XUSUSIYATLARI	137-149
Tulyayev Avazbek Ilhomovich	SUN'IY INTELLEKT VA ZAMONAVIY JAMIYAT AXLOQIY ONGGINING TRANSFORMATSIYASI	150-160

Xidirov Mustafo Toyirqulovich

International school of finance technology and science instituti Gumanitar va
tabiiy fanlar kafedrası mudiri, falsafa fanlari doktori

e-mail: xmt.2017@mail.ru
(Toshkent, O‘zbekiston)

ZAMONAVIY FAN TARAQQIYOTIDA BILIM VA FAOLIYATNING O‘ZGARUVCHANLIGI VA DAVR RUHI BILAN INTEGRATSIYASI

Annotatsiya. Zamonaviy fan taraqqiyotida bilim va faoliyatning o‘zgaruvchanligi va davr ruhi bilan integratsiyasi insoniyatning intellektual imkoniyatlarni kengaytirishga xizmat qilmoqda. Fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida bilimning mazmuni, shakllari va amaliy qo‘llanish sohalarida yuz berayotgan transformatsiyalar ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga bilim va faoliyatning o‘zaro aloqadorligi, ularning innovatsion rivojlanish, raqamlashtirish va globallashtirish jarayonlari bilan bog‘liqligi falsafiy-metodologik nuqtai nazardan namoyon bo‘lmoqda. Shuningdek, zamonaviy fan taraqqiyoti sharoitida bilim va faoliyatning o‘zgaruvchanlik xususiyatlari hamda ularning davr ruhi bilan integratsiyalashuv jarayonlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: zamonaviy fan, bilim, faoliyat, o‘zgaruvchanlik, davr ruhi, integratsiya, ilmiy taraqqiyot, innovatsiya, raqamlashtirish, globallashtirish, ilmiy tafakkur, transformatsiya, metodologiya.

KIRISH

Ilm fanning rivojlanish tarixiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak fanning dastlabki rivojlanish davrida ham, haqiqiy fan shakllanishida ham davr ruhiga mos bilimlar tizimi shakllanganligi ta‘kidlashimiz lozim. Haqiqiy fan davrida xususan, postklassik paradigmalarning shakllanishi falsafiy tafakkur taraqqiyotida yaxlit o‘garishlarni vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Borliqning substansional jihatlarini asoslashdan nazariy va amaliy ontologiyani ilgari surilishi hamda fenomenistik epistemologiyani tizimlashtirilishigacha bo‘lgan o‘zgarishlar bilan izohlanishi ham mumkin. Shuningdek, inson dunyoqarashi reallikka tomon keskin burilishga asos bo‘ladigan imkoniyatlarga ega bo‘lishining ham nazariy ham amaliy jihatlari tizimlashishiga erishildi. Faoliyat esa, maqsadni begilash, bilimni tizimlashtirish, onglik va ixtiyor erkinligi, faoliyatda subyekt va obyekt birligi, bilim-ko‘nikma-malaka birligi, ijtimoiy reallikka erishish, releksiv hamda motivatsion tamoyillar asosida bosqichma bosqich takomillashib bormoqda. Maqsadni belgilash tamoyili

dastlabki turki sifatida ichki va tashqi ehtiyojlar asosida shakllangan holda reallikka erishish uchun xizmat qiladi. Maqsad vositasida inson bilimlarni bir tizimga birlashtiradi va natijagacha bo'ladigan bosqichlarni bosib o'tadi.

MATERIALLAR VA METODLAR

Zamonaviy fan taraqqiyotida bilim va faoliyatning o'zgaruvchanligi masalasi ko'plab faylasuflar va fan metodologlari tomonidan tadqiq etilgan. Ilmiy bilimning rivojlanishi va uning jamiyatdagi o'rnini haqidagi qarashlar fan falsafasining markaziy mavzularidan biri hisoblanadi. S. Kline fan rivojlanishida fanlararo yondashuvning ahamiyatini ta'kidlab, murakkab muammolarni hal qilishda turli fan sohalari o'rtasidagi integratsiya zarurligini asoslab bergan. A. Grinbaum va M. Paty ilmiy bilimning shakllanishida fizik nazariyalar bilan metafizik tasavvurlar o'rtasidagi aloqalarni tahlil qilib, ilmiy taraqqiyot nafaqat empirik ma'lumotlarga, balki davrning dunyoqarashiga ham bog'liq ekanligini asoslaganlar. B. Latour ilmiy bilimning ijtimoiy konstruksiyasi g'oyasini ilgari surib, ilm-fan jamiyatdan ajralgan holda emas, balki ijtimoiy, madaniy va institutsional omillar bilan uzviy bog'liq ravishda rivojlanishini ta'kidlaydi. K. Popper ilmiy bilim rivojlanishini taxminlar va ularni rad etish jarayoni orqali tushuntiradi. T. Kun esa fan tarixini paradigmalar almashinuvi orqali izohlab, ilmiy inqiloblar davrida bilim va ilmiy faoliyatning mazmuni tubdan o'zgarishini ko'rsatadi. T. Uebel, S. Shapin, J. Hardwig va D. Hullarning tadqiqotlari ilmiy hamjamiyat, epistemik bog'liqlik va ilmiy faoliyatning ijtimoiy mexanizmlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Shunday qilib, tahlil qilingan ilmiy manbalar zamonaviy fan rivojida bilim va faoliyatning o'zgaruvchanligi, ularning ijtimoiy-madaniy muhit bilan bog'liqligi hamda davr ruhining ilmiy tafakkurga ta'sirini kompleks tarzda o'rganish imkonini beradi.

Tadqiqotning nazariy asosini fan falsafasi, epistemologiya va ijtimoiy bilish nazariyalari tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida tarixiylik va mantiqiylik birligi tamoyili asosida ilmiy bilim rivojlanishining turli bosqichlari tahlil qilindi. Bu usul ilmiy faoliyatning tarixiy sharoitlar va davr ruhiga bog'liq ravishda qanday transformatsiyaga uchrashini aniqlash imkonini berdi. Qiyosiy-tahliliy metod yordamida K. Poppening tanqidiy ratsionalizmi, T. Kunning paradigma nazariyasi, H. Longinoning ijtimoiy epistemologiyasi hamda Ch. Pirsning pragmatistik qarashlari o'zaro solishtirildi. Natijada ilmiy bilimning dinamik tabiati va uning faoliyat bilan aloqadorligi ochib berildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bilimni tizimlashtirish tamoyili esa o'z navbatida bilish jarayonida sifat jihatdan yangi marralarni zabt etishga hamda natijadorlikka erishish uchun xizmat qiladi. Ilmiy bilishning gnoseologik jarayoni ham endilikda statik tasvirlashdan, "bilish – aks ettirish" modelidan chiqib, ongning faol transformatsiyasi, bilish va faoliyat o'rtasidagi dialektik harakat sifatida tahlil etilmoqda. Bilimni tizimlashtirish natijasida falsafiy abstraksiyalashdan boshlab inmiy bilish dinamikasigacha bo'lgan natijalarga ham erishiladi.

Faoliyatda subyekt-obyekt birligi tamoyili esa, tizimlilik zanjirini ta'minlashda muhim ahamiyatga egadir. Bu esa, fanning subyekt-obyekt munosabatlarini qayta ko'rib chiqishga, bilishni amaliyot bilan chuqur bog'lashga va fanning ijtimoiy mas'uliyatini anglashga olib keladi. Shu tariqa, postnoklassik fan paradigmasida bilish jarayoni insonning faol ongi, ma'naviy pozitsiyasi va madaniy-institutsional muhiti bilan chambarchas bog'langan jarayon sifatida talqin etiladi. Bu esa bilishni nafaqat predmetga qaratish, balki uni shakllantirish, qayta yaratish, qayta qurish jarayoni sifatida anglashni talab etadi. Bunda bilishning mantiqiy tuzilishi, subyekt va obyekt o'rtasidagi chegaralarning nisbiyligi, bilish jarayonida mantiqiy ketma-ketligi va dunyo manzarasining dinamikligiga alohida e'tibor qaratiladi.

“Bilish subyekti mutlaq haqiqatni kashf etuvchi emas, balki reallikni qayta tuzuvchi ijodiy subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Ilmiy bilish doimo muayyan madaniy, ijtimoiy va amaliy faoliyat bilan bog'liqlikda shakllanadi” [Kline S.J., 1995, p. 197]. Bilish subyekt voqelikni shunchaki kuzatib va tasvirlab bermaydi, balki uni muayyan nazariyalar, tushunchalar va qadriyatlar orqali anglaydi hamda mazmunan qayta quradi. Shu sababli ilmiy bilim ijtimoiy-madaniy muhitdan ajralgan holda mavjud bo'la olmaydi. Har bir ilmiy nazariya o'z davrining madaniy ehtiyojlari, amaliy talablari va ijtimoiy sharoitlari ta'sirida shakllanadi. Bu yondashuv bilishning tarixiyligi va subyektning ilmiy haqiqatni yaratishdagi faol rolini asoslashga xizmat qiladi.

“Postnoklassik fan uchun xos bo'lgan xususiyat – bilish subyektining fan jarayonidagi markaziy rolini tan olish, subyekt va obyekt o'rtasidagi chegaralarni nisbiylashtirish va fanning ijtimoiy, ma'naviy, amaliy jihatlarini inobatga olishdir” [Grinbaum, A., Paty, M., 2003, p. 218].

“Bilish jarayonida subyektning faolligi, intersubyektiv munosabatlarning ahamiyati va fanning dinamik tabiati ilmiy bilishning universal emasligini, balki maqsadga yo'naltirilganligini ko'rsatadi. Bunda subyektivlik – ilmiy bilishning kamchiligi emas, balki uning mohiyatidir” [Latour B., 1999, p.145]. Ilmiy bilimning faoliyat bilan bog'liq jihatlarining tadqiq etilishi o'z ichiga insonning faoliyati bilan bog'liq amalga oshirilgan barcha ilmiy tadqiqotlarni, qolaversa ilmiy tadqiqot faoliyatiga o'z ta'sirini o'tkazishi mumkin bo'lgan barcha ijtimoiy munosabatlar tahlilini ham qamrab olishi kerak. Bir necha omillar birgalikda ushbu masalalarning zamonaviy fan falsafasida dolzarb ahamiyat kasb etishiga ta'sir etmoqda. Bu omillar qatoriga zamonaviy ilm-fanning jamiyatimizdagi hukmron mavqeyini tanqid ostiga oluvchi ijtimoiy harakatlar invayronmentalizm va feminizmni; ilmiy kashfiyotlarning ijtimoiy oqibatlari ustidagi xavotirlarni; katta fan tomonidan ilgari surilayotgan epistemologik masalalarni; fan tarixidagi yangi tendensiyalarni, xususan internalistik tarixnavislikdan chekinish holatlarini, fan sotsiologiyasidagi anormativ yondashuvlarni keltirish mumkin va bularning barchasi falsafada yana naturalizm va pragmatizmga qaytish hollarini yuzaga keltirmoqda.

Bizning fikrimizcha, ilm-fan taraqqiyotining ijtimoiy talqiniga ko'ra ilmiy tadqiqotlar shakllanishini ikki asosiy yondashuvlarni ajratib olishimiz lozim.

Ulardan biri ilmiy tadqiqotlar ijtimoiy muhitda olib borilishini tan oladi va bu xususiyatni hisobga olish uchun standart epistemologiyani qanday va qanchalik to'ldirish kerakligini savol sifatida qo'yadi. Ikkinchisi esa, ijtimoiylikni bilimning asosiy jihat sifatida ko'radi va bu ijtimoiy nuqtai nazardan standart epistemologiyani qanday o'zgartirish yoki qayta shakllantirish kerakligini o'rganadi.

Xelen Longino standart epistemologiyani ijtimoiy nuqtai nazardan qayta tahlil qilish zarurligini asoslar ekan, shunday yozadi: "obyektivlik – ijtimoiy qadriyatlardan xoli bo'lish emas, balki ilm-fan hamjamiyatlarida bu qadriyatlarni boshqarish masalasidir" [Longino H.E., 2001, p. 50]. Bu qarashga ko'ra, ilmning xolisligi – ijtimoiy ta'sirlardan butunlay xoli bo'lish emas, balki turlicha joylashgan subyektlar o'rtasida tanqidiy muloqot va normativ jarayonlar orqali shakllanadi.

Ilmiy bilish uchun muhim bo'lgan ijtimoiy tomonlarni ko'rsatib berish va tahlil qilishda faylasuflar konseptual tahlilni modellashtirish metodlari bilan uyg'un holda qo'llashadi. Shu jarayonda gender masalasini e'tiborga olishga Sara Richardson ham alohida e'tibor qaratishni taklif etadi. Sara Richardson ta'kidlaganidek, "feministik fan falsafasi ilmiy bilim yaratish amaliyoti va mahsulotlarini takomillashtirishga hissa qo'shdi va shu jihatdan u ijtimoiy ahamiyatga ega falsafiy yondashuv namunasidir" [Richardson S.S., 2010, p. 337]. Bevosita bu qarashlar ta'sirida fan falsafasi va fanmetriyada gender muammosini kiritish hamda ijtimoiy-madaniy shart sharoit bilan bog'liq ijtimoiy qadriyatlarning fan rivojiga ta'siri baholashga xizmat qilgan.

Shu bilan birga, Popper ko'pincha ijtimoiy epistemologiyaning asoschilaridan biri sifatida qaraladi, chunki u ilmiy bilimlarni rivojlantirishda tanqidning ahamiyatiga katta urg'u beradi. Uning asarlarida tanqidning ikki turi uchraydi, ularni mantiqiy va amaliy falsifikatsiya deb tavsiflash mumkin. Mantiqiy falsifikatsiya *modus tollens* argumenti strukturasi bilan bog'liq bo'lib, unda gipoteza uning mantiqiy natijalaridan birining yolg'on ekanligi ko'rsatilgan holda rad etiladi. Bu tanqidning bir turi, ammo bu hukmlar orasidagi formal munosabatlarga tegishli. Amaliy falsifikatsiya esa olimlarning bir-birlarining nazariyalarini kuzatiladigan kamchiliklar yoki konseptual nomuvofiqliklarni ko'rsatish orqali tanqid qilishga bo'lgan urinishlarini anglatadi. Bu ijtimoiy faoliyatdir. Popper fikricha, tanqidiy faoliyat uchun mantiqiy tafakkurning o'rni ahamiyatli bo'lib, buning sababi shundaki, "nafaqat tanqid orqali nazariyalarimiz asoslanadi, kuzatishlardan nazariyalarning asoslari aniqlanadi, balki faqatgina sof deduktiv tafakkur qilish orqaligina nazariyalar nimadan darak berishini aniqlash mumkin. Bu esa ularni samarali tanqid qila olish uchun sharoit yaratadi" [Popper K., 1963, p. 51]. Demak, Popper deduktiv tafakkurning nazariyalar mazmunini ochib berish zarurligini asoslaydi. Popper uchun ilm-fanning metodologiyasi falsifikatsiya bo'lib, u mantiqiy va amaliy ma'nolarda qo'llaniladi va ilm-fan nazariyalar va gipotezalarning zaifligini falsifikatsiya orqali namoyish etish bilan rivojlanadi. Poppoering mantiqiy falsifikatsionizmi haqiqiy ilmni psevdoidmdan ajratib ko'rsatishga urinishning bir ko'rinishi bo'lib, tabiiy va tarixiy yondashuvlar

falsafa va ilmiy metodologiyada bu demarkatsiya loyihasini savol ostiga qo'yganidan so'ng, o'zining ishonchli pozitsiyasini yo'qotgan. Millning qarashlaridan farqli o'laroq, Popper uchun tanqidning vazifasi nazariyalarni yaxshilash emas, balki yo'lqonlarini yo'q qilishdir.

Mill va Popporning ishlari hozirgi kunda ilmiy bilimning ijtimoiy o'lchovlarini o'rganayotgan faylasuflar uchun muhim manba hisoblanadi. Mantiqiylik asosida bilimni tizimlashtirilgan holda faoliyatga oid metodologiyani sxemalashtirish imkonini beradi. Ilmiy bilimlarning mantiqiy va ijtimoiy o'lchovlari teng ahamiyatli asos sifatida xizmat qiladi. Bu o'lchovlar Tomas Kunning "Ilmiy inqiloblar strukturasi" asari nashr etilgandan keyin yana e'tiborga tushdi. Fan tarixida paradigmalarining qayta talqin qilinishi va qayta ifodalanishi muntazam ravishda uchrab turadi. Bunday jarayonlar ko'pincha mavjud paradigmaga ayrim aniqliklar kiritish bilan cheklanib qolmay, balki uning mazmuni va qo'llanish doirasida sezilarli o'zgarishlarni ham yuzaga keltiradi. Mazkur o'zgarishlar, asosan, paradigmani aniqlashtirish va rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida sodir bo'ladi. Garchi bunday tadqiqotlar ko'pincha empirik tadqiqotlar sifatida tasniflansa-da, ularni faqat empirik faoliyat bilan cheklab bo'lmaydi. Chunki paradigmani aniqlashtirish va tizimlashtirishga qaratilgan muammolar bir vaqtning o'zida ham nazariy, ham eksperimental xarakterga ega bo'lib, mavjud nazariyalarni takomillashtirish va ularning amaliy qo'llanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Shu bois normal fan doirasidagi tadqiqotlar nafaqat yangi faktlarni aniqlash, balki paradigmanning ichki mantiqini chuqurlashtirish va uning ilmiy salohiyatini oshirish vazifasini ham bajaradi" [Kuhn T., 1996, P. 36-37]. Darhaqiqat paradigmalarini aniqlash fanning ahamiyatini yanada oshiradi va bilimlarning vorisiyligiga ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan Barry Barnes, Stiven Shapin va Garri Kollins kabi olimlar Kunning ilmiy o'zgarishlarda daliliy bo'lmagan jamiyat omillari ta'siri borasidagi fikrlarini yanada rivojlantirishdi va ilmiy qarorlar kasbiy manfaatlar va siyosiy mafkuralar kabi ijtimoiy omillar bilan belgilanishiga e'tibor qaratadilar.

Stiven Shapin ilmiy bilimlarning voqelikka aylanishiga oid shart sharoitga alohida e'tibor qaratadi. "Ilmiy bilimlar endilikda ularning yaratilishidagi ijtimoiy jarayonga bog'liq deb qaralmoqda. Haqiqat yoki haqiqat sifatida qabul qilinadigan voqelik nafaqat empirik dalillarning mahsuli, balki kasbiy manfaatlar, siyosiy mafkuralar va institutsional vorisiylik natijasi ham hisoblanadi" [Shapin, 1982, p. 159-160.]. Ilmiy haqiqat faqat tajriba va kuzatishlar asosida shakllanmaydi, balki ilmiy hamjamiyatning qadriyatlarini, kasbiy manfaatlarini, siyosiy sharoitlarini va institutsional tuzilmalarini ta'sirida ham vujudga keladi. Bu yondashuv ilm-fanni ijtimoiy faoliyat shakli sifatida talqin etib, bilimning ishlab chiqilishi va qabul qilinishida ijtimoiy omillarning muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Biroq bundan haqiqat butunlay subyektiv yoki nisbiy degan xulosa kelib chiqmaydi. Aksincha, ushbu yondashuv ilmiy bilimning mazmunini tushunishda uning nafaqat empirik, balki tarixiy-madaniy va ijtimoiy jarayonlarni ham hisobga olish zarurligini anglatadi.

Jon Hardvig katta tadqiqot guruhlari tomonidan yuzaga keladigan falsafiy muammoni ta'riflagan. Loyihalarda qatnashayotgan har bir a'zo yoki kichik guruh o'ziga xos muhim bilimga ega bo'lgani uchun zarur hisoblanadi, bu bilim boshqa hech bir a'zo yoki kichik guruhga tegishli emas. Bu bilim asbob-uskunaning bir qismidan foydalanish, muayyan turdagi hisob-kitoblarni amalga oshirish yoki maxsus o'lchov yoki kuzatishlarni amalga oshirish qobiliyati bo'lishi mumkin [Hardwig, J., 1985, p. 335-336]. Darhaqiqat jamoa a'zolar bir-birlarining ish natijalarini baholash imkoniyatiga ega emaslar, shuning uchun hamma bir-birining natijalarini ishonchli deb biladi va unga tayanadi. Natijada, eksperimental bir kashfiyot (masalan, ma'lum bir zarrachaning yemirilish tezligi yoki spin xossalarini o'lchash) yuzaga keladi, lekin bu kashfiyotga oid dalillarni tajribada ishtirok etgan hech kim to'liq anglamaydi. Hardvig bu holatda ikki savolni ko'taradi: biri guvohlikning daliliy maqomi, ikkinchisi esa bunday holatlarda bilim subyekti tabiati haqidagi savollardir. Ikkinchi savolga nisbatan Hardvig shuni ta'kidlaydiki, bu vaziyatda yoki butun guruh, lekin birorta ham a'zo bilimga ega emas, yoki bilim bilvosita mavjud bo'lishi mumkin. Hardvig uchun bu ikkala yechim ham qoniqarli emas. Guruh yoki jamoaning bilimga ega bo'lishi haqidagi fikr Hardvig uchun superorganizm yoki transsendent mavjudotlar haqidagi tasavvurni eslatadi va u bu yechimdan qochadi. Bilvosita bilim, ya'ni shaxs o'z bilgan narsasining to'g'riligiga oid dalillarga ega bo'lmasdan bilimga ega bo'lish bizning kundalik bilim bilan bog'liq tushunchalarimizdan haddan tashqari uzoqlashishimizni anglatadi. Kundalik bilimlarning ko'pi boshqalardan o'rganiladi. Biz jihozlarimiz, avtomobillarimiz yoki tanamizdagi muammolarni tushuntirish uchun ekspertlarga tayanamiz. Hatto, bolalikda ota-onamiz va o'qituvchilarimizdan o'rgangan narsalarimiz keyinchalik biladigan bilimlarimizning asosini tashkil qiladi. Dunyo haqidagi bilimlarni biz ta'lim, jurnalistika va ilmiy izlanishlar institutlari orqali egallaymiz.

Hardvigning fizik eksperimentlar uchun taqdim etgan dilemmasi umumiyroq hodisaning maxsus variantidir. Ilm-fan haqidagi keng tarqalgan tushuncha, qisman Poppening falsifikatsionizmiga asoslanib, ilmiy natijalar eksperimentlar va kuzatuvlar takrorlanishi orqali mustaqil tekshirilganligi sababli epistemologik jihatdan ishonchli hisoblanadi. Amalda esa, faqat ayrim natijalar shunday tekshiriladi, ko'plari esa faqat ishonch asosida qabul qilinadi. Nafaqat ijobiy natijalar ishonch asosida qabul qilinadi, balki takrorlanmaslik haqidagi da'volar ham va boshqa tanqidlar ham shunday qabul qilinadi.

Biolog va faylasuf Devid Hull o'z kitobida ilm-fandagi mukofot va jazolash tizimi ilmiy firibgarlikdan saqlanish uchun kuchli rag'batlantiruvchi omil ekanini ta'kidlab, ilm-fanni epistemologik tahlil qilish zarur emasligini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, "jarayon sifatida fanning muvaffaqiyati uning bir vaqtning o'zida raqobatni ham, hamkorlikni ham o'zida aks ettira olishi bilan belgilanadi. Olimlar ustuvorlik, mablag' ajratilishi, obro' sohasida bir-biri bilan raqobat qilishga majbur, lekin ayni paytda ular bir-biriga ma'lumot, g'oya va tanqid manbasi sifatida tayanadi. Ushbu ziddiyatli talablar qalloblikni oldini oluvchi va innovatsiyalarni yoqllovchi o'z-o'zini nazorat qiluvchi tizimning shakllanishiga

sabab bo‘ladi” [Hull David, 1988, p. 315]. Darhaqiqat, olimlar uchun eng katta yo‘qotish – ularning obro‘si bo‘lib, bu grantlar, hamkorliklar, mukofotlar kabi resurslarga kirishda to‘siq vazifasini bajaradi va aksincha ularning saqlanishi esa cheksiz imkoniyatlarga ega bo‘lishga xizmat qiladi. Shunday qilib, mukofot va jazolash tizimi firibgarlikka qarshi rag‘batlantiruvchi bo‘lsa ham, har bir tadqiqot hisobotining ishonchliligini kafolatlay olmaydi.

Global makonda biryoqlama tadqiqotlar o‘tkazish ya’ni individual natijalarga erishish imkoniyati minimallashtirilgan darajaga tushib bormoqda va natijada hamkorlikdagi metodologiyalar ahamiyati oshib bormoqda. Mahalliy metodologik farqlarning bir-birini muvozanatlashiga ishonib, ishonchlilik masalasini qisman hal qilishi mumkin. Ammo, ijtimoiy ta’sirlar bu modelning samaradorligini kamaytirishi mumkin.

Yuqoridagi global makonda bilim va faoliyatning davr ruhi bilan bog‘liqligiga oid tahlillar bevosita mamlakatimizda ham yaqqol islohotlarda ham aks etayotganligiga e’tibor qaratishimiz lozim. Masalan, birgina O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 1-apreldagi PF-6198-son “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmonini tahlil qiladigan bo‘lsak ilmiy va innovatsion faoliyatga oid islohotlarni amalga oshirilayotganligini Innovatsion rivojlanish vazirligining vazifalari yanada takomillashib borganligida yaqqol aks etgan. Innovatsion rivojlanish vazirligining asosiy vazifalari:

- mamlakatni innovatsion rivojlantirishning uzoq muddatli ssenariylari asosida ustuvor soha va tarmoqlarni ilm-fan yutuqlari va innovatsiyalar asosida rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish;
- hududlarning intellektual va texnologik salohiyatini oshirish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning zamonaviy infratuzilmasini shakllantirish;
- ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlarini shakllantirish, tasdiqlash va ularning ijrosini nazorat qilish;
- ilmiy darajali kadrlarni tayyorlash tizimini muvofiqlashtirish;
- yoshlarni ilmiy va innovatsion faoliyatga jalb etishning samarali mexanizmlarini joriy qilish va ular tashabbuslarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash;
- ilmiy va innovatsion loyihalarni amalga oshirishda investitsiyalarni keng jalb etish, xususiy sektor faolligini oshirish va venchurga asoslangan moliyalashtirishni rivojlantirish;
- innovatsion ishlanmalar asosida amalga oshiriladigan loyihalarning moliyaviy, iqtisodiy va texnik ekspertizasini o‘tkazish va intellektual mulk obyektlarini tatbiq etish uchun zarur sharoitlarni ta’minlash;
- iqtisodiyotning real sektori va ishlab chiqarish tarmoqlarining ilmiy ishlanma va innovatsiyalarga bo‘lgan ehtiyojlarini aniqlash hamda tarmoq ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish asosida ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini mustahkamlash;
- yangi ishlanmalarni tijoratlashtirish va ishlab chiqarishga joriy etish, startap loyihalarini amalga oshirish, intellektual mulk qatnashadigan yangi

tashkilotlarni shakllantirish va ratsionalizatorlik faoliyatini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoit yaratish;

- ilm-fan va innovatsiyalar sohasida xalqaro aloqalarni kengaytirish va mustahkamlash, innovatsiyalar va texnologiyalar transferi bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish¹ belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrdagi PF-269-son "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq Innovatsion rivojlanish vazirligi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan birlashtirilib O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tashkil etilgan. Shuningdek, ushbu farmon asosida 2022-yil 24-dekabr sanasidan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzurida Innovatsion rivojlanish agentligi o'z faoliyatini boshlagan. O'z navbatida bunday o'zgarishlar mamlakatimizda zamonaviy fan taraqqiyotida bilim va faoliyatning o'zgaruvchanligi va davr ruhi bilan integratsiyasi aks ettirmoqda.

XULOSA

Ilm-fanni rivojlantirish bir tomondan, tabiat va tabiiy hodisalar haqidagi bilimlarning jamlanmasini o'zida aks ettiradi, ikkinchi tomondan esa – jamiyat hayotidagi o'ziga xos faoliyat sohasi hisoblanadi. Shuning uchun ham bilish shakli hisoblangan, umumilmiy tadqiqot metodlari asosida fan ahamiyatiga ko'ra universal va umumiy hodisani tashkil qiladi va umumtarixiy xarakterga ega bo'lgan, tadrijiy va bosqichli jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Har bir tarixiy davr o'zining qadriyatlari, ehtiyojlari va dunyoqarashi orqali ilmiy tadqiqotlarning yo'nalishini belgilaydi. Raqamlashtirish, sun'iy intellekt, biotexnologiyalar, ekologik xavfsizlik va globallashtirish kabi zamonaviy jarayonlar fan oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda. Natijada bilim ishlab chiqarish usullari, ilmiy faoliyat shakllari va tadqiqot metodologiyalarida tub o'zgarishlar yuz bermoqda. Ushbu o'zgaruvchanlik ilmiy rivojlanishning beqarorligini emas, aksincha uning moslashuvchanligi, yangilik yaratish qobiliyati va ijtimoiy ehtiyojlarga javob bera olish salohiyatini ifodalaydi. Fan taraqqiyoti jarayonida bilim va faoliyatning davr ruhi bilan uyg'unlashuvi ilmiy innovatsiyalarni yuzaga keltiruvchi muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Chunki faoliyat shakli va hodisasi hisoblangan ilm-fan o'zi mavjud bo'lgan davr dunyoqarashini, jamiyatdagi texnik va ishlab chiqarish sohalarining ta'siri kabilarni ham o'zida aks ettiradi. Bunday yondashuv ilm-fanning ijtimoiy va axloqiy masalalarini chuqurroq o'rganishni, shuningdek, yangi fanlararo metodologiyani ishlab chiqishni talab qiladi.

BIBLIOGRAFIYA

1. Kline, S.J. (1995). Conceptual foundations for multidisciplinary thinking. – USA: Stanford University Press.

¹ <https://lex.uz/docs/-5352267>

2. Grinbaum, A., & Paty, M. (2003). Physics and metaphysics // Studies in History and Philosophy of Modern Physics. United Kingdom, – № 34(2).
3. Latour, B. (1999). Pandora's hope: Essays on the reality of science studies. – London: Harvard University Press.
4. Longino, H.E. (2001). The Fate of Knowledge. – USA: Princeton University Press.
5. Richardson, S.S. (2010). Feminist Philosophy of Science: History, Contributions and Challenges // Synthese, – № 177(3).
6. Popper, Karl. (1963). Conjectures and Refutations: The Growth of Scientific Knowledge. London: Routledge and Kegan Paul.
7. Kuhn, T. S. (1996). The Structure of Scientific Revolutions. 3rd ed. Chicago: University of Chicago Press.
8. Shapin, Steven. (1982). The History of Science and Its Sociological Reconstructions // History of Science. – UK, – №20.
9. Hardwig, J. (1985). Epistemic dependence // The Journal of Philosophy, – № 82 (7).
10. Hull, David. L. (1988). Science as a Process: An Evolutionary Account of the Social and Conceptual Development of Science. – Chicago: University of Chicago Press.

Хидиров Мустафо Тойиркулович

Заведующий кафедрой Гуманитарных и естественных наук Института
«International School of Finance Technology and Science»,
доктор философских наук

**ИЗМЕНЧИВОСТЬ ЗНАНИЯ И ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РАЗВИТИИ
СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ И ИХ ИНТЕГРАЦИЯ С ДУХОМ ЭПОХИ**

Аннотация. Изменчивость знания и деятельности, а также их интеграция с духом эпохи в развитии современной науки способствуют расширению интеллектуальных возможностей человечества. Стремительное развитие науки и технологий оказывает существенное влияние на трансформацию содержания, форм и сфер практического применения знания. Вместе с тем взаимосвязь знания и деятельности, а также их связь с процессами инновационного развития, цифровизации и глобализации всё более отчётливо проявляются в философско-методологическом измерении. В данной статье анализируются особенности изменчивости знания и деятельности в условиях развития современной науки, а также рассматриваются процессы их интеграции с духом эпохи.

Ключевые слова: современная наука, знание, деятельность, изменчивость, дух эпохи, интеграция, научное развитие, инновации, цифровизация, глобализация, научное мышление, трансформация, методология.

Khidirov Mustafo Toyirqulovich

Head of the Department of Humanities and Natural Sciences, International School
of Finance Technology and Science Institute, Doctor of Philosophical Sciences

e-mail: xmt.2017@mail.ru

(Tashkent, Uzbekistan)

**THE VARIABILITY OF KNOWLEDGE AND ACTIVITY IN THE
DEVELOPMENT OF MODERN SCIENCE AND ITS INTEGRATION
WITH THE SPIRIT OF THE AGE**

Abstract. The variability of knowledge and activity, as well as their integration with the spirit of the age in the development of modern science, serves to expand humanity's intellectual capacities. The rapid advancement of science and technology has exerted a significant influence on the transformation of the content, forms, and practical applications of knowledge. At the same time, the interrelationship between knowledge and activity, along with their connection to processes of innovation, digitalization, and globalization, is increasingly manifested from a philosophical and methodological perspective. This article analyzes the characteristics of the variability of knowledge and activity in the context of contemporary scientific development and examines the processes of their integration with the spirit of the age.

Keywords: modern science, knowledge, activity, variability, spirit of the age, integration, scientific development, innovation, digitalization, globalization, scientific thinking, transformation, methodology.

